


I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-iyunida Andijon viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 22 843,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 8,4 % ga o'sdi.




YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 115,8 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Andijon viloyatining qo'shgan hissasi 5,9 % ga yetdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2021- yil yanvar- iyun	2022- yil yanvar- iyun	
	I. YAHM	18 203,3	22 843,1	108,4
	<i>shu jumladan:</i>			
	tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	17 633,6	22 181,5	108,1
	mahsulotlarga sof soliqlar	569,7	661,6	118,4
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	17 633,6	22 181,5	108,1
	qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	6 732,7	7 922,9	102,6
	sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	4 859,7	6 956,9	118,5
	sanoat	3 707,2	5 590,5	122,5
	qurilish	1 152,5	1 366,4	105,5

		Mrd. so‘m		O‘shish sur‘atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2021- yil yanvar- iyun	2022- yil yanvar- iyun	
	xizmatlar	6 041,2	7 301,7	105,8
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1 306,4	1 575,2	107,3
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 040,1	1 222,8	112,0
	boshqa xizmat tarmoqlari	3 694,7	4 503,7	103,5

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 6 988,4 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 6,2 % ga yuqoridir.



**Yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan
YAHM hajmi va o‘shish sur‘atlari**




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,1 foizini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,9 foizini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 35,7 % ni, sanoat tarmog‘i 25,2 % ni, qurilish 6,2 % ni va xizmatlar sohasi 32,9 % ni tashkil qildi.




**Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

		2021- yil	2022- yil
	I. YAHM	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	96,9	97,1
	mahsulotlarga sof soliqlar	3,1	2,9
	II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	100,0	100,0
	qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	38,2	35,7
	Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	27,5	31,4
	sanoat	21,0	25,2
	qurilish	6,5	6,2
	xizmatlar	34,3	32,9
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	7,4	7,1
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,9	5,5
	boshqa xizmat tarmoqlari	21,0	20,3




Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2021- yil



2022- yil





YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 102,6 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 35,7 %), sanoatda – 122,5 % (25,2 %), qurilishda – 105,5 % (6,2 %), xizmatlar sohasida – 105,8 % (32,9 %)ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 107,3 % (7,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,0 % (5,5 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,5 % (20,3 %)dan iborat bo'ldi.



Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)


■ 2021- yil ■ 2022- yil



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,0 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 1,2 f.p.), sanoat tarmog'i – 4,6 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida salbiy 1,2 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,3 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 0,8 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 1,9 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 2,3 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,6 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 0,04 f.p.)ga ko'paydi.




2022- yilning yanvar-iyun oylarida
YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2022- yilning yanvar-iyunida YAHM deflyatori indeksi 2021- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 115,8 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari o'sishiga sanoatda – 123,1 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 114,7 % qayd etildi.



2021-2022- yillarnig yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMda kichik biznesning ulushi (jamiga nisbatan %da)



2022- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 65,9 % ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-iyunida – 69,9 %).

YAHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.